



## BMTNING INSON HUQUQLARI BO`YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARINING TUZILISHI

Mirzayeva Nixola Akramovna

Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15241821>

### ARTICLE INFO

Received: 31th March 2025

Accepted: 10<sup>th</sup> April 2025

Published: 18 th April 2025

### KEYWORDS

*Shartnomaviy organlar, BMT, inson  
huquqlari.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada BMTning inson huquqlari bo`yicha shartnomaviy organlarining tuzilishi va uning xalqaro huquqdagi ahamiyati ochib beriladi.*

BMT doirasida inson huquqlari bo`yicha shartnomaviy organlari tuzimi.

Xalqaro huquqda shartnomaviy organlar belgilangan xalqaro konventsiya bo`yicha a`zo davlatlarning shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajarishini nazorat qiluvchi ekspertlar guruhidan iborat bo`lgan xalqaro organ hisoblanadi.

Hozirgi kunda yagona tizimga aylangan inson huquqlari bo`yicha 10 shartnomaviy organlar mavjud. Ushbu maqolada tizimni rivojlantirish yuzasidan turli qarashlar tahlil qilinadi.

Inson huquqlari bo`yicha shartnomaviy organlar tizimi.

Inson huquqlari bo`yicha shartnomaviy organlarning tuzilishi inson huquqlari bo`yicha xalqaro nazorat qilish mexanizimining rivojida yangi bir bosqich bo`ldi. Shartnomaviy organlar inson huquqlari bo`yicha yuqori malakaga ega bo`lgan mustaqil ekspertlar guruhidan tashkil topgan va belgilangan shartnomalar bo`yicha majburiyatlarni nazorat qilish bilan shug`ullanadilar. Hozirgi kunda 9 ta qo`mita va 1 ta kichik qo`mitadan iborat bo`lgan inson huquqlari bo`yicha 10 ta shartnomaviy organlar mavjud .

-Barcha ko`rinishdagi irqiy kamsitishlarni yo`q ilish bo`yicha Qo`mita, 1969-yildan boshlab 1965-yil qabul qilingan Barcha turdagi irqiy kamsitishlarni yo`q qilish to`g`risidagi konventsiyaning amal qilinishini nazorat qiladi.

-Inson huquqlari bo`yicha qo`mita, 1966-yildagi fuqarolik va siyosiy huquqlar to`g`risidagi xalqaro paktning bajarilishini nazorat qiladi (1976-yilda tashkil qilingan).

-Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo`yicha qo`mita. 1966-yildagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to`g`risidagi xalqaro paktning qo`llanilishini nazorat qiladi (1985-yildan boshlab).

-Ayollarga nisbatan kamsitishning oldini olish bo`yicha qo`mita, 1979-yildagi Ayollarga nisbatan barcha ko`rinishdagi kamsitishni yo`q qilish to`g`risidagi xalqaro Konventsiyaning amal qilinishini nazorat qiladi (1981-yildan boshlab amal qiladi).

-Qiynoqlarga qarshi qo`mita, (1987-yilda tuzilgan), 1984-yildagi =

-Bolalar huquqlari bo`yicha qo`mita (1991-yildan boshlab) va unga ikkita qo`shimcha protokol, Bolalar huquqlari to`g`risidagi Konventsiyaga bolalar savdosi, bolalar zo`rlanishi va bolalar parnagrafiyasiga aloqador qo`s

himcha protokol (2001-yil) va bolalarning qurolli nizolarda qatnashishiga aloqador, bolalar huquqlari to`g`risidagi Konventsiyafga qo`shimcha pratokol.

-Mexnat migrantlari va ularning oila a`zolarining huquqlarini himoya qilish bo`yicha qo`mita. 1990-yildagi barcha mexnat migrantlari va ularning oila a`zolarining huquqlarini himoya qilish to`g`risidagi Konventsiyaning amal qilishini nazorat qiladi (2004-yilda o`z ishini boshlagan).

-Imkoniyati cheklanganlar huquqlari bo`yicha Qo`mita (2008-yilda), 2006-yildagi Imkoniyati cheklanganlar huquqlarini himoya qilish to`g`risidagi xalqaro Konventsiyaning amal qilinishini nazorat qiladi (2009-yildan sessiyalar chaqirib boshlagan).

-Majburiy yo`qotish bo`yicha Qo`mita, 2006-yilda barcha shaxslarning majburiy yo`qotilishiga qarshi Konventsiyaning kuchga kirganidan so`ng 2011-yilda tashkil qilingan.

-Qiynoqlarni oldini olish bo`yicha quyi qo`mita

Shartnomaviy organlarning asosiy vazifasi a`zo davlatlarning davriy taqdimotlarini ko`rib chiqishdan iborat. Shartnomaviy organlar tegishli shartnoma bo`yicha tartibga amal qilinishini ham nazorat qiladi. Qo`mitalarning yettitasida inson huquqlari bo`yicha shartnomalarda nazarda tutilgan huquqlarning buzilishi bo`yicha induvidial murojaatlarni ko`rib chiqadi. Shartnomaviy organlarning 5 tasi o`z vakolatlari doirasida surishturuv o`tkazish vakolatiga ega hisoblan

Shartnomaviy organlarning o`ziga xos yutug`l uning tizimlashtirilmagan ammo to`g`ri tashkil qilingan tizimini o`z ichiga oluvchi takrorlanmas rivojlanishidir. 2004-yildan boshlab inson huquqlari bo`yicha shartnomaviy organlar tizimi 4 ta yangi shartnomaviy organlarning va 5 ta induvidial murojaatning yangi protsedurasining tashkil qilinganligi sababli ikki baravar kengaydi. Asosiy shartnomalarning ratifikatsiya qilinishining umumiy miqdori ikki baravar oshdi.

2013-yilda shartnomaviy organlar ekspertlarining umumiy miqdori 17y2 taga yetdi (2000-yilda 97 bilan solishtirganda). Mavjud majlislar miqdori ham 2000-yildagi 51 haftadan 2012-yilda 74 haftaga oshdi. Bular shuni ko`rsatadiki shartnomaviy o`rganlarning xalqaro huquqdag ahamiyati yildan yilga oshib bormoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak BMTning inson huquqlari bo`yicha shartnomaviy organlari xalqaro huquqda juda muhim ro`l o`ynaydi va ularning tizimini takomillashtirish hozirda muhim ahamiyatga ega.